

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY**





Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Д.Дехқонов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноят, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррир: Н.Юсупов

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e- mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.06.2022 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 6**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



1) lingvistik: tautologiya-bitta ildizni takrorlash bir-birig ma'noviy yaqin so'zlarni takroriy qo'llash pleonazm, bu ikki hodisani ajratib turadigan belgisi takrorlash turlari.

2) kommunikativ: V.A.Vinogradovning fikriga ko'ra, "tautologiya pleonazmdan farqli o'laroq, har doim tizim va til normasiga kiritilmagan, ixtiyoriy". Pleonazm esa suhbatni mazmundor qilish uchun, muloqot jarayoniga yanada oydinlik kiritish uchun gapda qo'llanadi.

Mavjud lug'atlarda tautologiya leksik hodisa sifatida va leksik yoki grammatik darajadagi hodisa sifatida pleonazm hodisasi ko'rsatiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, pleonazm va tautologiyaning farqli jihatlarini o'rganishda, bu hodisalarning boshqa jihatlarini ko'rish ham talab etiladi. Shunday ekan til tizimi murakkab hisoblanib, undagi ortiqchalilik ham tilning o'rganish aspekti hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- ¹ Г о л у б И. Б. Стилистика современного русского языка. М., 1976. С. 17.
2. Б о л г а н б а е в А. Синонимика имени существительного в казахском языке: Автореф. канд. дисс. Алма-Ата, 1955. 5-бет.
3. К л е в е л . ЗИНВИК йег беИзсийеп зргасе/ / М., 1963. С. 330,, Б у ш у й А. М. Кўрсатилган асар, 38-бет.
- ⁴ К о ж и н а М. Н. Стилистика русского языка. М., 1977. С. 38.
5. К о р о л ь к о в В. И. к теории фигур // Сборник научных трудов. Вып. 78. Московский государственный педагогический институт иностранных языков им. Мориса Тореза. М., 1973. С. 93.
6. А д ж и б е к с а Г.Д.Д. Место плеоназмов в системе средствязышовой избмточности (на материале современного казахского язmk а),1982, 60-бет.

O'ZBEK TILIDA MAXSUS FONETIK VA FONOSTILISTIK EFFEKT BERUVCHI ALLITERATSIYA TUSHUNCHASI VA SAN'ATI HAQIDA

D.Sh.Islomov

BuxDU doktoranti

islomovdilshod77@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada she'riy asarlarda fonetik effekt va ohang beruvchi tavze'(alliteratsiya) san'ati haqida, she'rlarda alliteratsiya hodisasi, fonostilistik birliklarning diskursiv-pragmatik tahlili jarayonida alliteratsiyaning roli to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: assonans, geminatsiya, qofiya, fonologiya, morfonologiya, stilistika, fonetik effect, fonetik uslubiyat, nutq tovushlari, badiiy matn, fonostilistik vositalar, tavze' (alliteratsiya) san'ati.

О ПОНЯТИИ И ИСКУССТВЕ АЛЛИТЕРАЦИИ, СПЕЦИАЛЬНОМ ФОНЕТИЧЕСКОМ И ФОНИСТИЛИСТИЧЕСКОМ ЭФФЕКТЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Д.Ш.Исломов

докторант БухГУ

islomovdilshod77@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается искусство аллитерации, придающее фонетический эффект и тональность в поэзии, феномен аллитерации в поэзии, роль аллитерации в процессе дискурсивно-прагматического анализа фоностилистических единиц.



Ключевые слова: ассонанс, геминация, рифма, фонология, морфология, стилистика, фонетический эффект, фонетический стиль, звуки речи, художественный текст, фоностилистические средства, аллитерация.

ABOUT THE CONCEPT AND ART OF ALLITERATION, SPECIAL PHONETIC AND PHONOSTILISTIC EFFECT IN UZBEK LANGUAGE

D.Sh.Islomov

doctoral student BuxSU

islomovdilshod77@gmail.com

Annotation: This article discusses the art of alliteration, which gives a phonetic effect and tone in poetic works, the phenomenon of alliteration in poetry, the role of alliteration in the process of discursive-pragmatic analysis of phonostylistic units.

Keywords: assonance, gemination, rhyme, phonology, morphology, stylistics, phonetic effect, phonetic style, speech sounds, literary text, phonostylistic means, alliteration.

Ma'lumki, o'zbek tili fonetikasi va fonostilistikasi shu tilning adabiy talaffuzi va til madaniyati bilan bevosita uzviy bog'liqdir. Bunga misol tariqasida fransuz tilshunos olimi, mashhur keltolog, ko'plab universitetlarning faxriy doktori, yozuvchilar akademiyasining a'zosi, til muammolari bilan qiziqqan, tilshunoslikning taniqli namoyandasi Jozef Vandriyes bundan bir ars oldin "Tilshunoslar tildagi uch tarkibiy qismni: tovushlar, grammatika va lug'atini bir-biridan ajratadilar"⁵⁸ deb ta'kidlagan fikri fonetika, fonologiya va fonostilistikaga berilgan yuqori bahodir. Shuningdek, "o'zbek tili jahondagi eng yirik turkiy tillardan biri bo'lib, tilning grammatika, stilistika, leksikologiya, fonetika, fonologiya va morfonologiya singari bo'limlari rivojlanishi tarixi XX asrning yigirmanchi va o'ttizinchi yillarida sezilarli darajada alohida o'rin tutadi"⁵⁹. Chunki aynan shu yillardan boshlab mazkur til ustida ilmiy izlanishlar olib borish ishlari boshlangan. Bunga misol qilib Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov, Mirzo Kenjabek, Munis, kabi olim, yozuvchi va shoirlarimizning yozgan asarlarini misol qilib aytish mumkin. Badiiy matnda ayniqsa fonetik usul va vositalarning roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, "Inson tili benihoya murakkab bo'lib, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilish o'ta murakkabdir. Shunday bo'lsada, dunyo tilshunosligi tarixidagi bir necha asrlik tajribalar turli oqim namoyandalari tilni tadqiq etish eng maqbul yo'l hisoblab, bu yo'lda o'rganish obyektni va uning mohiyatini aniq ko'rsatib berish uchun butun umrlarini sarflaganlarini ko'rsatadi"⁶⁰. Darhaqiqat, hozirgi kundagi ilmiy izlanishlar natijasida tilning fonetik imkoniyatlaridan foydalanishning maxsus usullaridan biri xususan, badiiy san'atlardan ayniqsa, tavze' (alliteratsiya) san'atidan mohirona foydalanishlik matnga qo'shimcha ekspressivlik, fonetik effekt va joziba berishi o'z-o'zidan har qanday kitobxon va

⁵⁸ S.Otamirzayeva, M.Yusupova - O'zbek tili. Fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya

⁵⁹ Islomov D.Sh. A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridagi fonostilistik birliklarning diskursiv tahlili" maqolasi. UrDU. Ma'mun akademiyasi. 2020, noyabr.

⁶⁰ Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklari matnida modallik kategoriyasining milliy-madaniy, lingvokognitiv xususiyatlari. Diss. filol.fan.dok. Toshkent, 2017. – B.67



tadqiqotchi izlanuvchilarda o‘zaro hissiyot va qiziqish uyg‘otishini ko‘rsatib berishi ayon bo‘ladi.

Manbalar shuni ko‘rsatadiki yozuvchi, shoir va nosirlarning eng ko‘p qo‘llaydigan vositalaridan biri bu alliteratsiya san‘ati hisoblanadi. Bu san‘atni matnga maxsus fonetik effekt, joziba beradigan eng asosiy sababi takrorlanadigan unli va undosh tovushlarning namunalarini faqatgina she‘riyatda emas, balki nasriy asarlarda ham uchratish mumkin. Fonetik nutqni bezash shakllari har bir tilda mavjud bo‘lgani kabi, bu shakllar o‘zbek tilini ham chetlab o‘tmagan deb aytish o‘rinlidir. Bilamizki, so‘zning tovushli kompozitsiyasi yordamida tilning ekspressivligini oshirishning ushbu usullari ovozli yoki fonetik yozuv deb nomlanadi. Bu fonetik yozuvlar orasida alliteratsiya va assonans eng ko‘p qollaniladigan san‘atlardan sanaladi.

Alliteratsiya va assonans haqida turli ta‘riflarni keltirish mumkin: “Alliteratsiya (Tavze) – she‘rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi, tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan ohangdorlik alliteratsiya deb yuritiladi”⁶¹.

Alliteratsiya o‘zining fazilatlari tufayli bolalarni o‘qitishda keng qo‘llaniladi. Odatda bu bolalar qo‘shiqlari uchun matnlarni yoki turli xil mavzularni maqbul o‘rganishga erishish uchun amalga oshirilgan tillarni chalish uchun ishlab chiqishda yuzaga keladi. Alliteratsiya – bu matnni tashkil etuvchi jumlar ichida unli va undosh tovushlarni takrorlash, shunday qilib esa, ushbu adabiy moslama she‘riyatda, tilni aylantirishda yoki so‘z o‘yinlarida kelishi mumkin. Shuningdek, “Assonans – bir xil unlilarni takrorlash. Assonans alliteratsiya bilan bir xil maqsadlarni ko‘zlaydi (bu so‘zni ko‘ring) va ikkinchisi singari, ko‘pincha u bilan birlashtirilib, she‘riy tilni ifodalashning kuchli vositasidir”⁶². Assonans, assonans, er. (Fransuzcha assonans) (kitob). 1. Konsonans. 2. Tugallanmagan olmosh, unda faqat unlilar qo‘fiyalanadi, undoshlar emas (lit.). lug‘ati”⁶³, “assonans, fransuzcha assonance – consonance, qabul qilish ovozli yozish; urg‘uli unlining bir xil nutq segmentidagi turli so‘zlarda takrorlanishi”⁶⁴ - shoir va yozuvchilar, uni sillabotonik va tonik misralarda ritmni ta‘kidlash uchun, tarjimonlar esa xijjalab tarjimada uyg‘unlik va ma‘no ohangdorligini muqobillashtirishda ishlatadilar.

Alliteratsiya san‘atining asosiy vazifalaridan biri undosh tovushlarni uyushgan holda takrorlash bo‘lsa, ikkinchidan unli assonansini ham xuddi shu tartibda qayta qo‘llashdan iboratdir. Asarlardagi bu san‘at turi tovush takrorlanishiga asoslangan boshqa qofiya, dissonans kabi stilistik qurilmalardan farqli o‘laroq ishlatilgan bir tekis undosh tovushlarning tartibsiz joylashishi bilan ajralib turadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ularning badiiy asarlar maydoniga ya‘ni, oyat, ibora, misraning boshida, har bir so‘zning boshida yoki umuman erkinlik bilan joylashgan bo‘lishi ham mumkin.

Ta‘kidlash joizki, alliteratsiya san‘ati, assonans, qofiya, tovush takrorlari evfoniya holatini yuzaga keltiruvchi badiiy usul va vositalardir. Tavze’ san‘ati badiiy matnlarda va she‘riy asarlarda tovushlarning bir-biriga uyg‘unlashuvi natijasida paydo bo‘ladi va ularning

⁶¹ O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁶² Ushakov D.N. Izohli lug‘ati, 1935

⁶³ Ushakov D.N. Izohli lug‘ati, 1935

⁶⁴ Zamonaviy tasvirlangan ensiklopediya. - M.: Rosman. Tahrirlovchi prof. A.P.Gorkina 2006

ohangdorligini ta'minlaydi. Tavze'⁶⁵ (arabcha so'z - tarkatmok, taksim kilmok, joylashtirmok)-mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, baytda bir xil tovushlarni takrorlash san'ati hisoblanadi. Tavze'ga berilgan ta'riflarda hozirgacha ixtiloflar mavjud: ayrim manbalarda uning yuzaga chiqishi uchun faqat undosh tovushlar takrorlanishi shart deyilsa, boshqa manbalarda esa bu shart qo'yilmaydi, undosh yoki unlilar takrorlanayotganidan qat'iy nazar, tavze'deb yuritilaveradi. Tavze'dan hosil bo'luvchi poetik samara shuki, bir necha bora takrorlanuvchi tovush (yoki tovushlar guruhi) baytga uziga xos ohang, musiqiylik baxsh etadi. Shu o'rinda yuqoridagi alliteratsiya terminiga berilgan ta'riflar bir-birini taqazo etadi va to'ldiradi.

O'zbek mulkingning sultoni, ulug' shoir Mir Alisher Navoiy o'zining o'lmas she'riy va nasriy asarlarida ona tilimizning beqiyos so'z boyliklari, cheksiz ifoda imkoniyatlarini bor jozibasi va latofati bilan alohida yuksak did orqali namoyon etgan o'zbek shoirining asarlarini yanada tadqiq etish kun sayin ortmoqda. Yildan yilga uning serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, uni targ'ib qilish bo'yicha salmoqli ishlar ko'lami kengaymoqda. Xususan uning she'riy asarlaridagi ko'plab parchalari badiiy san'atlar, o'zbek tili fonetikasi va fonostilistikasi, xususan tavze' san'atiga oiddir.

Yozuvchi va shoir Mirzo Kenjabekning asarlarida ham Tavze' san'ati "s" va "q" undoshlarining bir necha marta takrorlanishi natijasida yuzaga kelganligini kuzatish mumkin.

Alliteratsiya san'ati tovushlarning mexanik takrori yoki shaklbozlikka moyillik emas, aksincha, uning sara namunalarida takrorlanayotgan tovushlar ifoda etilayotgan mazmun bilan uyg'unlik kasb etadi hamda mazmun ifodasini ritmik-intonatsion jihatdan kuchaytiradi.

Odatda, tildagi unli tovushlarning hamohangligi musiqiylikning oshishiga sabab bo'ladi. Assonans bir xil yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlikdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, alliteratsiya yozuvga ko'proq sezgir kuch berish, baho berish va shu bilan birga ifoda etish uchun ishlatiladi. Boshqa tomondan, bu sonority elementi nutqni bezatadi, sayqal beradi, shu bilan birga unga qiziqarli, dinamizm, o'ziga xoslik va ijodkorlik bag'ishlaydi.

Assonans – matnni, ayniqsa, she'riy, tovushni tashkil qilish usuli: alliteratsiyadan farqli ravishda unlilarni takrorlash (undosh tovushlarni takrorlash) hamdir.

Alliteratsiya va annosans to'g'risidagi fikr-mulohazalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, turli tadqiqotlarda mazkur tushunchaga berilgan ta'riflar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, biri ikkinchisini to'ldiradi va bir-birini taqazo etadi. Alliteratsiya va annosans haqidagi fikrlar, turli manbalardan olingan misollar tahlili alliteratsiya san'ati oldingi davrlar poetikasi singgari zamonaviy o'zbek tili fonetikasi va fonostilistikasida ham muhim ahamiyat kasb etuvchi vosita hisoblanadi. Bu fonetik vosita she'r mazmunini ta'sirli va hissiyotli qilib, aytilmoqchi bo'lgan fikr va mazmunni bo'rtirib ko'rsatish va oydinlashtirish, misralarning ohangdorligi hamda musiqiyligini oshirishga xizmat qiladi hamda lug'at boyligimizdagi ayrim so'zlarning yangi-yangi ma'nolari kashf etilishiga erilishiladi. Qolaversa Yangi O'zbekistonning yoshlar ongi va ma'naviyatini rivojlantirish, ularning kelajakda yetuk kadr bo'lib yetishishi uchun muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan tashkil etilgan respublika miqyosidagi „Eng faol kitobxon“ tanlovida faol qatnashib, faxrli o'rinlarni olishlari uchun tinmay mutola qilish, nazmiy asarlarni yod oilsh, ularni fonetik va fonostilistik vositalardan to'g'ri foydalangan holda ifodali aytib berishlarida alliteratsiya,

⁶⁵ D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva- "Adabiyotshunoslik lug'ati" Toshkent 2013y.

assonans va boshqa badiiy san'atlarning o'rni beqiyosdir. Bu, albatta, yoshlarning badiiy barkamolligini yuksaltirishga yordam beradi. Darhaqiqat, badiiy adabiyot va til to'g'ri rivojlansa, yoshlar ma'naviyati ham to'g'ri shakllanib boraveradi.

Qolaversa, til va madaniyat munosabati, uning ijtimoiy hayotda aks etishi, til xususiyatlarini o'rganish masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Bu borada umumlisoniy xarakterga ega, til mohiyatini anglash uchun muhim bo'lgan fonetika va fonologiyaning har bir til misolida o'ziga xos qirralarini ochib berish uning nazariy asoslarini tadqiq etishga imkon yaratadi.

Адабиётлар

1. S.Otamirzayeva, M.Yusupova - O'zbek tili. Fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya.
2. D.Sh.Islomov. (2021). The Definition of The Concepts of «Phoneme» and «Phonostylistics». Middle European Scientific Bulletin, 9. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.9.204>
4. Islomov, D. (2021). THE ROLE OF PHONOSTYLISTIC UNITS AND PHONEMES IN THE PROCESS OF TEACHING FRENCH TO ADULTS IN THE ANALYSIS OF EXAMPLES. Конференции, 1(1). <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.971>
5. ISLOMOV, D. Sh, and GA JAHONGIROVA. "THE ROLE OF PHONOSTYLISTICS AND PHONOSTYLISTIC UNITS IN TEACHING FRENCH AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." E-Conference Globe. 2021.
6. Д.Ш Исломов. "Поэтические формы как культуроведческий компонент при обучении иностранному языку". Статьи в Академии Наука. Мысль: электронный периодический журнал, 2015. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/poeticheskie-formy-kak-kulturovedcheskiy-komponent-pri-obuchenii-inostrannomu-yazyku> (дата обращения: 13.03.2021).
7. Д Исламов, НВ Ванцова, ТМ Хусяинов – "Возможности использования проектной методики при преподавании иностранных языков" Наука. Мысль: электронный периодический журнал, 2016. 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-ispolzovaniya-proektnoy-metodiki-pri-prepodavanii-inostrannyh-yazykov> (дата обращения: 13.03.2021).
8. Islomov, D. (2021). ЖИЗНЬ АБДУЛЛЫ КАДИРИ И ЕГО ВКЛАД В УЗБЕКСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 6(2). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/561
9. Islomov, D. (2021). ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПОНЯТИЯ ФОНЕМЫ И ФОНОСТИЛИСТИКИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/560.
10. D Islomov - SECTION: CULTURAL SCIENCE MODERN SCIENTIFIC RESEARCH, 2019.
11. Islomov, D. (2022). Француз тили фонетикаси Француз тили фонетикасининг ўзига хос жиҳатлари: Француз тили фонетикасининг ўзига хос жиҳатлари. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4108.
12. DS Islomov - THE ROLE OF SONORS IN ENHANCING PHONETIC RESONANCE AND MELODY IN UZBEK POETRY- International Virtual Conference on Language and ..., 2022.



13. DS Islomov - THE ART OF TAVZE (ALLITERATION) IN THE PHONETIC STYLE OF THE UZBEK LANGUAGE IMPORTANCE (IN THE EXAMPLE OF POETIC WORKS) International Virtual Conference on Language and ..., 2022

14. ДШ.Исламов - ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КОНФЛИКТЫ И ИХ РАЗРЕШЕНИЕ - NovaInfo. Ru, 2016

ЎЗБЕКЧА ДИНИЙ МАТНЛАР ФРАЗЕОЛОГИЯСИ

Амонтурдиева Шоира Равшановна

Термиз давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси доцент в.б

Филология фанлари бўйича фалсафа (PhD) доктори

Тилнинг фразеологик фондининг маълум қисмини диний тушунчалар билан боғлиқ элементлар ҳам ташкил этади. Улар тилимизга тайёр ҳолда кириб келган эмас, балки миллий лингвокултурологик маҳсулот сифатида кейин пайдо бўлган. Арабча-форсча ҳамда туркийча диний ономастик лексика бундай турдаги теофразеологик бирликларнинг вужудга келишига асос бўлган. Бундай кўринишдаги диний фразеологик бирликлар семантикаси Аллоҳ ва унинг қудрати, инсонни яхшилик ва исломий эътиқодга даъват қилувчи ниятлар ва дуолар билан боғлиқ тарзда ранг-барангдир.

Таъкидлаш керакки, теофразеологизмлар миллий тафаккур имкониятларининг кенглигини, диний эътиқоднинг мустаҳкамлик даражасини кўрсатиш баробарида, халқларнинг ментал хусусиятларни ўзида акс эттириб, ўзбек тилининг тасвирий имкониятлари нақадар катта эканлигини ҳам намойиш этади.

Ҳозирги замонда фразеологизмларни лингвокултурологияда ўрганиш долзарб ва мунозарали масалалардан ҳисобланади. Фразеологизмларнинг миллий – маданий хусусиятларини аниқлаш, фарқ қилувчи, ўхшаш жиҳатларини аниқ ва объектив ёритиш мақсадида биринчи навбатда уларнинг келиб чиқиш тарихи, манбалари, яъни этимологиясини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Бундай фраземаларнинг бошқа фраземалардан фарқли ўзига хослигини, алоҳида таъкидлаш лозим. Биринчидан, аксарият диний фраземалар араб, форс тилларидан ўзлашган лексик бирликлар асосида юзага келган бўлиб, ҳозирги замон ўзбек тили фразеологик захирасида тўлақонли бирлик сифатида ҳам оғзаки, ҳам ёзма нутқ жараёнида қўлланиб келинади. Масалан, *соҳиби каромат* – каромат эгаси; *фарзи айн* – ҳар ким ўзи адо етиши керак бўлган амаллар (намоз, рўза, закот); *фарзи кифоя* – мукаллафлар жамоасидан қандайдир адади маълум амални бажариб қўйса, бошқалари соқит бўлади, масалан, жаноза намози; *номаи аъмол* – шайтони лаин; *фаҳри коинот*⁶⁶. Бу ерда оддий лексик маъно ҳақида гап кетмайди, балки уларнинг бирга кўчирилган ва яратган фразеологик маънолар ҳақида гап боради.

Диний тушунчалар, халқнинг дунёқараши орқали юзага келган фраземаларни оғзаки, ёзма нутқда қўлланишига кўра икки гуруҳга ажратиш лозим. Биринчи гуруҳга диний тушунчалар асосида умумхалқ тилида, оғзаки нутқда барча томонидан қўлланиб келинадиган иборалар. Масалан, *қиймат қарз*; *шукр қилмоқ*; *даргоҳида қабул қилсин*; *шак келтирмоқ*; *шаккоклик қилмоқ*; *хўжа кўрсинга*; *оқ фотиҳа*; *қўлини ҳалолламоқ*; *хатна*

⁶⁶ Muxtorxon Eshon Umarxo`ja. Diniy atamalar va iboralar. Qisqacha ommabop izohli lug`at. – T.: G`afur G`ulom nashriyoti, 2016. – B.146-164.



84	Problems of complex research of terminology Muminova D.A	451
85	O'zbek tili savodxonligi va nutqni yuksaltirishda raqamli ta'limning ahamiyati Shermatova O.A., Sadriddinov A.S	455
86	Theoretical scientific views on metaphor in english and uzbek Meliboyeva M.B.	462
87	S.Ahmadningning "Qorako'z majnun " va Pamela S.Turning "Hachiko" hikoyalarida "It" zoosemasida sadoqat timsoli Toirova U.S	466
88	Literature review of community building in the classroom and the activities related to the collaborative building in the classroom Valijanov Sh.A	470
89	XIX asrda ayollarning jamiyatdagi mavqei Rashidova F.R	474
90	Generonimlarning invariant-variant munosabatlari Xoldarova I.V.....	478
91	Алпомиш достонидаги фразеологизмларнинг этимологик тадқиқи. Ахмедов Х.Я	483
92	Туркизмларнинг инглиз тилида пайдо бўлишининг тарихий шарт-шароитлари Воситов В.А	491
93	Tilshunoslikda pleonazm va tautologiyaning farqli jihatlari Yo'ldosheva D.X	495
94	O'zbek tilida maxsus fonetik va fonostilistik effekt beruvchi alliteratsiya tushunchasi va san'ati haqida Islomov D.Sh.....	498
95	Ўзбекча диний матнлар фразеологияси Амонтурдиева Ш.Р	503
96	Qarg'ishlarning sotsiologik xususiyatlari Zakirova D.X.....	511
97	Инглиз ва ўзбек тилларида "Табу" нинг илмий ўрганилиши Бахриддинова Д.О	514
98	Ўзбек системавий тилшунослигининг шаклланишида профессор Нурмоновнинг ўрни Искандарова Ш.М., Иминжонова Ҳ.З.	518
99	The role of toponymos in poetry analysis Yo'ldosheva Q.V	523
100	Концепт тушунчасининг тарихий ривожланиши Эштўхтарова Б.Б.	529
101	Использование синтаксических конструкций в произведениях А.П.Чехова Лутфитдинова М.Х., Дедаханова М.М	534